



STARTAP LOYIHALARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

*To‘lqinova Nozimaxon Zaynabiddinxon qizi O‘zbekiston Respublikasi Bank-
Moliya Akademiyasi 70411202- Loyiha Boshqaruvi yo‘nalishi magistranti email:
muxsumxonovanozimaxon0909@gmail.com*

Annotatsiya

Mazkur maqolada startap loyihalarini boshqarishning zamonaviy metodologiyalari hamda ularning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Innovatsion startaplar yuqori darajadagi noaniqlik, tez o'zgaruvchan bozor talablari va resurslarning cheklanganligi sharoitida faoliyat yuritishi sababli moslashuvchan loyiha boshqaruvi yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida an'anaviy loyiha boshqaruvi modeli (Waterfall) hamda zamonaviy metodologiyalar (Agile, Scrum, Lean Startup, Kanban) o'zaro solishtirildi. Empirik ma'lumotlar asosida startap muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, startap rivojlanish bosqichlariga mos integratsiyalashgan loyiha boshqaruvi modeli taklif etildi. Tadqiqot natijalari startap asoschilari, loyiha menejerlari va investorlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: startup, innovatsion loyiha, loyiha boshqaruvi, Agile, Lean Startup, Scrum, risklarni boshqarish, moslashuvchan metodologiya, samaradorlik tahlili, integratsiyalashgan model, strategik boshqaruv, monitoring va nazorat.

MODERN MODELS OF STARTUP PROJECT MANAGEMENT AND THEIR EFFECTIVENESS

Abstract

This article analyzes modern project management methodologies for startups and their impact on overall effectiveness. Since innovative startups operate under



high levels of uncertainty, rapidly changing market demands, and limited resources, flexible project management approaches become essential. Within the scope of the study, the traditional project management model (Waterfall) and modern methodologies (Agile, Scrum, Lean Startup, Kanban) are compared. Based on empirical data, the factors influencing startup success are identified, and an integrated project management model suited to the stages of startup development is proposed. The results of the study hold practical significance for startup founders, project managers, and investors.

Keywords: startup, innovative project, project management, Agile, Lean Startup, Scrum, Risk Management, flexible methodology, performance analysis, integrated model, strategic management, monitoring and control.

Kirish


So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya, platforma biznesi, sun‘iy intellekt (AI), fintech, edtech hamda elektron tijoratning jadal rivojlanishi natijasida startaplar innovatsion iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylandi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, startaplar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, yangi ish o‘rinlarini shakllantirish hamda venchur kapital investitsiyalarini jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshiradi (OECD, 2022; World Bank, 2023).

Global startap ekotizimi rivojlanish darajasi xalqaro tashkilotlar va tadqiqot markazlari tomonidan muntazam ravishda monitoring qilinadi. Startup Genome tomonidan e‘lon qilingan Global Startup Ecosystem Report 2024 ma‘lumotlariga ko‘ra, tadqiqot doirasida 300 dan ortiq global startap ekotizimlari hamda millionlab innovatsion kompaniyalar faoliyati tahlil qilingan (Startup Genome, 2024). Jahon bankining Entrepreneurship Database loyihasi esa 180 dan ortiq mamlakatlarda yangi tashkil etilgan korxonalar dinamikasini kuzatish orqali innovatsion



tadbirkorlik rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi (World Bank, 2023).

Global startup ekotizimi hududlar kesimida bir xil rivojlanmagan bo'lib, innovatsion kapital, ilmiy tadqiqot markazlari va venchur investitsiyalar asosan muayyan texnologik markazlarda jamlangan. Startup Genome (2024) hisobotiga ko'ra, dunyoning yetakchi startup markazlari qatoriga Silicon Valley, New York, London, Beijing va Boston kiradi.



Manba: Global Startup Ecosystem Report (2024) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur ekotizimlar Top-40 global startup markazlari umumiy iqtisodiy qiymatining taxminan 54 foizini tashkil etadi. Ular orasida Silicon Valley eng yetakchi ekotizim bo'lib, global startup qiymatining qariyb 22 foizini o'zida jamlagan. Ushbu hududda Apple, Google, Meta, Tesla kabi yirik texnologik kompaniyalar shakllangan bo'lib, venchur kapital investitsiyalari va innovatsion infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi startaplarning tez o'sishiga imkon yaratadi.



New York va London ham global startup ekotizimining muhim markazlari hisoblanadi. Ushbu shaharlarda moliyaviy infratuzilma, investorlar tarmog'i va texnologik kompaniyalar faoliyati yuqori darajada rivojlangan. Xususan, New York startup ekotizimi global startup qiymatining taxminan 10 foizini, London esa 9 foizini tashkil etadi.

Ushbu ekotizimlarning rivojlanishida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- venchur kapital bozori rivojlanganligi
- universitetlar va ilmiy markazlar mavjudligi
- innovatsion infratuzilma
- tajribali mentorlar va investorlar tarmog'i
- moslashuvchan boshqaruv metodologiyalaridan foydalanish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion muhit rivojlangan hududlarda

startaplar tezroq o'sish bosqichiga o'tadi hamda investitsiya jalb qilish ehtimoli yuqori bo'ladi (GEM, 2023).

Startaplarni boshqarishning o'ziga xos jihati ular yuqori noaniqlik sharoitida faoliyat yuritadi. Bozor ehtiyojlari tez o'zgaradi, texnologik yechimlar tez eskiradi hamda raqobat darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli an'anaviy loyiha boshqaruvi modellariga asoslangan qat'iy rejalashtirish startup muhitida har doim ham samarali natija bermaydi (PMI, 2021).

Agile metodologiyasi startup loyihalarida moslashuvchan boshqaruvni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv iterativ rivojlanish, tezkor fikr-mulohaza olish hamda jamoaviy hamkorlik tamoyillariga asoslanadi (Rigby et al., 2020). Lean Startup konsepsiyasi esa mahsulotni minimal funksiyalar bilan ishlab chiqish hamda



real foydalanuvchilar orqali sinovdan o'tkazish imkonini beradi (Bland & Osterwalder, 2020).

O'zbekiston Respublikasida startap ekotizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-357-son qarorida startap loyihalarni moliyalashtirish, venchur investitsiya mexanizmlarini kengaytirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlari belgilangan. Mazkur qaror startap ekotizimining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi (Lex.uz, 2024).

Adabiyotlar tahlili

Loyiha boshqaruvi nazariyasi boshqaruv fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Dastlab loyiha boshqaruvi yirik sanoat, qurilish, energetika va mudofaa sohalarida qo'llanilgan bo'lib, murakkab texnologik jarayonlarni rejalashtirish, resurslarni optimal taqsimlash hamda vaqtni samarali boshqarish vazifalarini bajarishga qaratilgan edi. Keyinchalik xizmat ko'rsatish sektori, axborot texnologiyalari hamda innovatsion iqtisodiyot rivojlanishi natijasida loyiha boshqaruvi tashkilotlarning strategik rivojlanish vositasiga aylandi (PMI, 2021).

Zamonaviy loyiha boshqaruvi konsepsiyalariga ko'ra loyiha vaqt, xarajat va sifat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali qiymat yaratishga qaratilgan tizimli faoliyat hisoblanadi. Kerzner loyiha boshqaruvini tashkilotning strategik maqsadlariga erishish uchun resurslarni samarali muvofiqlashtirish jarayoni sifatida izohlaydi (Kerzner, 2022).

An'anaviy loyiha boshqaruvi modeli sifatida Waterfall (kaskad) yondashuvi keng tarqalgan. Ushbu modelda loyiha hayotiy sikli qat'iy ketma-ket bosqichlardan iborat bo'ladi.



Har bir bosqich to'liq yakunlangandan keyin keyingi bosqichga o'tiladi. Ushbu yondashuv barqaror talablar mavjud bo'lgan loyihalarda samarali hisoblanadi (PMI, 2021). Biroq innovatsion startap loyihalarida bozor ehtiyojlari tez o'zgarishi sababli qat'iy rejalashtirish asosidagi yondashuv har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shuningdek, loyiha boshqaruvida eng keng tarqalgan metodologiyalardan biri bu Agile hisoblanadi. Agile metodologiyasining keng tarqalgan shakllaridan biri Scrum framework hisoblanadi. Scrum tizimidir. Scrum jamoalarga ishni kichik qismlarga bo'lib bajarish hamda jarayonni doimiy takomillashtirish imkonini beradi (Scrum Guide, 2020). Agile metodologiyasining yana bir muhim komponenti Kanban tizimi hisoblanadi. Kanban yondashuvi ish jarayonini vizuallashtirish hamda ish oqimini optimallashtirishga qaratilgan. Kanban metodologiyasi Toyota ishlab chiqarish tizimidan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik IT va startap muhitiga moslashtirilgan (Anderson, 2020).

Lean Startup konsepsiyasi startap boshqaruvida strategik yondashuv sifatida muhim ahamiyatga ega. Lean Startup modeli mahsulotni mukammal shaklda yaratishdan ko'ra tezroq sinovdan o'tkazish tamoyiliga asoslanadi (Blank & Dorf, 2020). Lean Startup konsepsiyasida gipotezalarni test qilish muhim o'rin tutadi. Startap jamoasi mahsulot qiymati, mijoz segmenti va monetizatsiya strategiyasi bo'yicha gipotezalar ishlab chiqadi va ularni A/B test orqali tekshiradi. A/B test ikki xil mahsulot variantini solishtirish orqali qaysi biri samaraliroq ekanini aniqlash imkonini beradi. Lean Startup konsepsiyasining muhim elementlaridan biri pivot strategiyasi hisoblanadi. Pivot startap strategiyasini o'zgartirish jarayonini anglatadi (Blank & Dorf, 2020).

Zamonaviy tadqiqotlar startap boshqaruvida gibrid model samarali ekanini ko'rsatadi. Ushbu model Agile, Lean Startup va Risk Management yondashuvlarini birlashtiradi (Rigby et al., 2020).

Startap hayotiy sikli quyidagi bosqichlardan iborat:



- ☐ idea stage
- ☐ validation stage
- ☐ growth stage
- ☐ scaling stage

Har bir bosqichda boshqaruv metodologiyasi turlicha bo'ladi. Dastlabki bosqichlarda Lean Startup ustuvor bo'lsa, growth bosqichida Agile samarali hisoblanadi.

Startup loyihalarini boshqarish metodologiyalarini taqqoslash

Mezoni	Agile	Lean Startup	Kanban
Asosiy maqsad	tezkor ishlab chiqish	bozor validatsiyasi	jarayon optimallashtirish
yondashuv turi	iterativ	eksperimental	uzluksiz oqim
asosiy vosita	sprint	MVP	kanban board
moslashuvchanlik	yuqori	yuqori	o'rta-yuqori
riskni kamaytirish	iteratsiya	test	jarayon nazorati
qayerda samarali	IT	startup	operatsion ish

Manba: PMI (2021), Rigby et al. (2020), Anderson (2020), Scrum Guide (2020) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar startup antimalarial boshqarishda qo'llaniladigan asosiy metodologiyalar o'rtasidagi konseptual farqlarni ko'rsatadi. Agile metodologiyasi iterativ rivojlanishga asoslanib, mahsulotni qisqa vaqt oralig'ida takomillashtirish imkonini beradi. Lean Startup yondashuvi esa mahsulotni bozorga tez chiqarish va foydalanuvchi fikr-mulohazalari asosida strategiyani moslashtirishga qaratilgan. Kanban metodologiyasi esa ish jarayonlarini vizual boshqarish orqali operatsion samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.



Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda startap loyihalarini boshqarish yondashuvlarining amaliy qo'llanish darajasini aniqlash hamda ularning startap muvaffaqiyatiga ta'sirini

baholash maqsadida bir nechta ma'lumot manbalaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar yig'ishning asosiy usuli sifatida so'rovnoma usuli tanlandi. Ushbu usul startap ekotizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning fikr-mulohazalarini tizimli ravishda yig'ish hamda ularni statistik tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning empirik qismi uchun ma'lumotlar maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma orqali yig'ildi. So'rovnoma Google Forms platformasi orqali tashkil etildi hamda startap ekotizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar orasida tarqatildi.

So'rovnoma savollari startap boshqaruvida muhim hisoblangan bir nechta asosiy yo'nalishlarni qamrab oldi. Xususan, Agile metodologiyasi, Lean Startup konsepsiyasi hamda risklarni boshqarish amaliyotlari startap faoliyatida qanchalik qo'llanilishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu yondashuvlar startap boshqaruvi nazariyasida eng muhim va keng tarqalgan metodologiyalar hisoblanadi.

So'rovnoma tuzilmasi bir nechta bo'limlardan iborat bo'lib, ular quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- respondentning umumiy profili;
- startap faoliyati haqida umumiy ma'lumot;
- startapning rivojlanish bosqichi;
- Agile metodologiyasining qo'llanish darajasi;
- Lean Startup amaliyotlarining qo'llanish darajasi;



- risklarni boshqarish mexanizmlarining mavjudligi;
- startapning strategik moslashuvchanligi.

Har bir bo‘lim startap boshqaruvining muayyan jihatini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi. Bu esa tadqiqot natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida startap muvaffaqiyatini baholash uchun bir nechta indikatorlardan foydalanildi. Ular orasida startapning daromad o‘sishi, mahsulotni bozorga chiqarish tezligi hamda strategik moslashuvchanlik kabi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu indikatorlar startap faoliyatining real natijalarini aks ettiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

LTV (Lifetime Value) – Mijozning umumiy iqtisodiy qiymatini aniqlash uchun LTV ko‘rsatkichidan foydalaniladi:

$$LTV = \text{o'rtacha daromad} * \text{mijoz bilan hamkorlik muddati}$$

Mazkur ko‘rsatkich mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlik natijasida olinadigan umumiy daromadni baholash imkonini beradi.

Time-to-Market (TTM) – Mahsulotni ishlab chiqish tezligini baholash uchun Time-to-Market ko‘rsatkichidan foydalaniladi:

$TTM = \text{mahsulot ishlab chiqish boshlanish vaqti} - \text{mahsulot bozorga chiqarilgan vaqt}$ Mazkur ko‘rsatkich startapning bozor talablariga qanchalik tez moslashishini aniqlash imkonini beradi.

Pivot samaradorligi ko‘rsatkichi – Pivot strategiyasining samaradorligini baholashda mahsulot o‘zgarishidan keyingi foydalanuvchilar o‘sishi va daromad dinamikasi taqqoslanadi.



Pivot effectiveness = yangi strategiyadan keyingi o'sish / pivotdan oldingi o'sish.

Mazkur ko'rsatkich startap strategiyasidagi o'zgarishlarning natijadorligini baholash imkonini beradi.

ROI (Return on Investment) – Investitsiya samaradorligini baholash uchun ROI ko'rsatkichidan foydalaniladi:

$$ROI = (\text{Foyda} - \text{Investitsiya miqdori}) / \text{Investitsiya miqdori} * 100\%$$

Mazkur ko'rsatkich startap loyihasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning qanchalik samarali ishlatilganini aniqlash imkonini beradi.

CAC (Customer Acquisition Cost) – Mijozni jalb qilish qiymatini aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$CAC = \text{Marketing xarajatlari} / \text{jalb qilingan mijozlar soni}$$

CAC ko'rsatkichi startapning marketing strategiyasi samaradorligini baholash imkonini beradi.

Cash-flow prognozi shabloni

Startap loyihalarida pul oqimlarini prognozlash investitsiya qarorlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadval startap loyihasi uchun soddalashtirilgan cash-flow modelini ko'rsatadi:

Startap loyihasi uchun soddalashtirilgan pul oqimi

Yil	Investitsiya		Daromad Xarajat (USD)	Sot'
	(USD)	(USD)	pul	
0	-50 000	0	0	-50 000
1	0	18 000	9 000	9 000
2	0	35 000	14 000	21 000



3	0	60 000	22 000	38 000
4	0	95 000	30 000	65 000

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval startap mahsulotini ishlab chiqish va bozorga chiqarish loyihasi uchun soddalashtirilgan pul oqimi modelini ko'rsatadi. Pul oqimlari asosida investitsiya samaradorligi NPV va IRR ko'rsatkichlari baholanadi.

NPV (Net Present Value) – diskontlangan naqd oqimlar asosida loyiha qiymatini baholash. Startap loyihalari yuqori noaniqlik sharoitida amalga oshirilishiga qaramay, investitsiya qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslash zarur hisoblanadi. Shu sababli moliyaviy baholash usullaridan biri sifatida diskontlangan pul oqimlari (DCF – discounted cash flow) yondashuvi qo'llaniladi. Mazkur yondashuv investitsiya loyihasining kelajakdagi pul oqimlarini hozirgi qiymatga keltirish orqali loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

NPV (Net Present Value) loyihaning kelajakdagi naqd tushumlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni diskontlash asosida aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$NPV = \sum (CF / (1 + r)^t) - I_0$$

bu yerda:

CF – t davrdagi naqd pul oqimi

r – diskont stavkasi t – vaqt davri

I_0 – boshlang'ich investitsiya hajmi

Agar $NPV > 0$ bo'lsa, loyiha investitsiya uchun maqbul hisoblanadi, chunki u investor uchun qo'shimcha qiymat yaratadi. Agar $NPV < 0$ bo'lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi.



NPV hisoblash jadvali

Yil (t)	(USD)	$1/(1+r)^t$	oqimi (USD)	PV
0	-50 000	1.000	-50 000	
1	9 000	0.820	7 377	
2	21 000	0.672	14 106	
3	38 000	0.551	20 909	
4	65 000	0.452	29 309	
Jami			21 701	

Manba: Muallif hisob-kitobi, World Bank (2023).

Diskont stavkasi (r) = 22%

Diskont stavkasi odatda kapital qiymati yoki bozor foiz stavkalariga asoslanadi. O'zbekiston sharoitida diskont stavkasi sifatida Markaziy bankning asosiy stavkasi, bank kredit foizlari yoki investorlar talab qiladigan minimal rentabellik darajasi olinishi mumkin (World Bank, 2023).


Mazkur jadvalda startap loyihasining prognoz pul oqimlari diskontlash usuli yordamida hozirgi qiymatga keltirildi. Diskont stavkasi sifatida O'zbekiston moliya bozorida kapital qiymatini ifodalovchi o'rtacha foiz darajasi (22%) qabul qilindi. Hisob-kitob natijalariga ko'ra, NPV musbat qiymatni tashkil etdi (21 701 USD), bu loyiha investor uchun iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

NPV ko'rsatkichining musbat bo'lishi startap loyihasiga kiritilgan investitsiyalar kelajakda qo'shimcha qiymat yaratishini anglatadi. Ushbu natija startap boshqaruvida resurslardan samarali foydalanish va moslashuvchan metodologiyalarni qo'llash iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.



Tahlil va natijalar

Zamonaviy startap ekotizimida innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun moslashuvchan, tezkor va ma'lumotlarga tayanuvchi boshqaruv metodologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy loyiha boshqaruvi usullari, odatda, qat'iy rejalashtirish, uzoq muddatli strategik yo'nalish va oldindan belgilangan bosqichlarga tayanadi. Biroq startaplar faoliyat yuritadigan muhit yuqori darajadagi noaniqlik, tez o'zgaruvchan bozor talablari, resurslar cheklanganligiva foydalanuvchi ehtiyojlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. (Blank & Dorf, 2020; Blank & Dorf, 2020; PMI, 2021).



4.2.1-rasm. Startaplarda Agile metodologiyasidan foydalanish.


Manba: So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xususan, 18 nafar respondent Agile metodologiyasidan o'z startapida foydalaninishini aytgan bo'lsa, 9 nafar respondent buni rad etgan. Bu esa startaplarning tez o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish uchun an'anaviy



usullardan ko‘ra moslashuvchan va iterativ boshqaruv mexanizmlarini afzal ko‘rayotganini anglatadi.

Agile metodologiyasining asosiy g‘oyasi mahsulotni kichik iteratsiyalar orqali rivojlantirishdan iborat. Ushbu iteratsiyalar odatda sprint deb ataladi va ular 1–4 haftalik qisqa davrlarni o‘z ichiga oladi. Har bir sprint davomida jamoa muayyan vazifalarni bajaradi va sprint yakunida ishlaydigan mahsulot funksiyasi yoki uning muhim qismi taqdim etiladi. Bunday yondashuv mahsulotni muntazam ravishda takomillashtirish hamda foydalanuvchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida tezkor o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi (Schwaber and Sutherland, 2020).



Lean Startup metodologiyasidan foydalanish.

Manba: So‘rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Tadqiqotda 27 nafar ishtirokchidan deyarli 74% ulushi, ya’ni 20 nafar respondent Lean Startup amaliyotidan foydalanishini bildirgan. Bu natija startap



jamoalarining mahsulotni iterativ rivojlantirish hamda foydalanuvchi fikrlariga asoslanib strategiya shakllantirishga katta e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi.

Lean Startup konsepsiyasi zamonaviy startap ekotizimida keng qo'llaniladigan innovatsion boshqaruv yondashuvlaridan biridir. Ushbu konsepsiya startaplarni tezkor eksperimentlar, foydalanuvchi fikrlarini o'rganish hamda bozor talablariga moslashuvchan strategiyalar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Lean Startup yondashuvi Eric Ries tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u innovatsion biznesni rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan eksperiment sifatida ko'rib chiqadi (Blank & Dorf, 2020).

Tadqiqot natijalari ham Lean Startup amaliyotlari startap jamoalarida keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Respondentlar fikriga ko'ra, MVP asosida bozorga tez chiqish, foydalanuvchi fikrlarini o'rganish hamda mahsulotni iterativ rivojlantirish startap jamoalarining samaradorligini oshiradi. Bu esa startap jamoalariga bozor o'zgarishlariga tezroq moslashish imkonini beradi.



Startaplarda Pivot strategiyasidan foydalanish darajasi



Manba: So‘rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 41 foizi startap rivojlanish jarayonida pivot strategiyasidan foydalanganini bildirgan. Bu ko‘rsatkich startaplarning muhim qismi bozor sharoitlari, foydalanuvchi ehtiyojlari yoki mahsulot natijalari asosida o‘z strategiyasini qayta ko‘rib chiqishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 59 foizi pivot qilmaganini bildirgan bo‘lib, bu startaplarning bir qismi hali dastlabki strategiya asosida faoliyat yuritayotganini anglatadi. Mazkur natija pivot strategiyasining startap boshqaruvida muhim, ammo barcha startaplar tomonidan bir xil darajada qo‘llanilmaydigan mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.

Startap loyihalari yuqori darajadagi noaniqlik bilan tavsiflanadi. Innovatsion mahsulot yaratish, yangi bozorlarni o‘rganish hamda yangi biznes modellarni sinovdan o‘tkazish jarayonida turli xil risklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli risklarni samarali boshqarish startap muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Risk Management — bu loyiha jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash hamda ularni kamaytirish yoki boshqarish bo‘yicha tizimli jarayondir (ISO 31000:2020).

Tadqiqot natijalari ham risklarni boshqarish startap muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Respondentlarning fikriga ko‘ra, startap jamoalari risklarni erta aniqlash va monitoring qilish orqali o‘z strategiyalarini yanada samarali tashkil etishi mumkin. Risklarni boshqarish jarayoni startap jamoalariga resurslardan samarali foydalanish hamda strategik qarorlarni asosli ravishda qabul qilish imkonini beradi.



Startaplarda Risk Management amaliyotlari bo'yicha respondent baholari

Risk Management amaliyoti	Tavsif	Tahlil uchun indicator
Risklar oldindan aniqlanadi	Startapda potensial xavflar oldindan ko'rib chiqiladi	Risk identifikatsiyasi
Risk register yuritiladi	Risklar yozma shaklda qayd etiladi	Risk hujjatlashtirish
Risk ehtimolligi va ta'siri baholanadi	Risklar miqyos va ehtimollik bo'yicha tahlil qilinadi	Riskni baholash
Mitigation ishlab chiqiladi	Risklarni kamaytirish rejasi mavjud	Riskga javob
Risklar muntazam monitoring qilinadi	Risk holati doimiy kuzatib borilad	Monitoring
Moliyaviy risklar nazorat qilinadi	Daromad, xarajat, investitsiya xatarlari ko'riladi	Moliyaviy risk
Texnik risklar baholanadi	Texnologik nosozlik va muammolar baholanadi	Texnologik risk
Bozor risklari tahlil qilinadi	Talab va raqobat omillari ko'rib chiqiladi	Bozor riski
Qarorlar risk tahliliga asoslanadi	Strategik qarorlarda risk inobatga olinadi	Qaror sifati
Muqobil ssenariylar mavjud	Kutilmagan holatlar uchun reja bor	Moslashuvchanlik

Manba: So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tadqiqot natijalari startaplarda risklarni boshqarish amaliyotlari turli darajada qo'llanilishini ko'rsatadi. Risklarni oldindan aniqlash, ularni baholash va monitoring qilish startap barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omillar sifatida namoyon bo'ldi.



Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, startap loyihalarini

boshqarishda moslashuvchan boshqaruv metodologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy loyiha boshqaruvi usullari ko'pincha barqaror va oldindan aniq belgilangan sharoitlarda samarali bo'lsa, startap muhitida yuqori darajadagi noaniqlik, tez o'zgaruvchan bozor talablari hamda innovatsion g'oyalarning tezkor rivojlanishi sababli moslashuvchan boshqaruv yondashuvlari ko'proq samara beradi.

Tadqiqot davomida Agile metodologiyasining startap jamoalari uchun samarali boshqaruv mexanizmi ekanligi aniqlandi. Agile yondashuvi mahsulotni iterativ tarzda rivojlantirish, jamoa ichidagi kommunikatsiyani yaxshilash hamda bozor o'zgarishlariga tez moslashish imkonini beradi. Lean Startup konsepsiyasi esa mahsulotni minimal funksiyalar bilan bozorga chiqarish hamda foydalanuvchilar fikrlariga asoslanib uni rivojlantirish imkonini beruvchi samarali strategik yondashuv sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari asosida startap loyihalarini boshqarish jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, startap jamoalari loyiha boshqaruvida moslashuvchan metodologiyalardan faol foydalanishi kerak. Ayniqsa, Agile metodologiyasi jamoa ish jarayonini samarali tashkil etish hamda mahsulotni iterativ tarzda rivojlantirish imkonini berishi sababli startap muhitida keng qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, startap mahsulotlarini rivojlantirish jarayonida Lean Startup konsepsiyasidan foydalanish tavsiya etiladi. MVP orqali mahsulotni minimal funksiyalar bilan bozorga chiqarish hamda foydalanuvchilar fikrlarini muntazam o'rganish startap jamoalariga mahsulotni bozor ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.



Uchinchidan, startaplar boshqaruvida pivot strategiyasini qo'llash muhim hisoblanadi. Bozor talablari o'zgarib turishi sababli startap jamoalari o'z strategiyasini muntazam ravishda tahlil qilib borishi hamda zarur hollarda biznes model yoki mahsulot konsepsiyasini qayta ko'rib chiqishi lozim.

To'rtinchidan, startaplar o'z ekotizimini rivojlantirish maqsadida inkubator va akselerator dasturlarida loyiha boshqaruvi metodologiyalarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu startap asoschilari va jamoa a'zolarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Beshinchidan, startap loyihalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish maqsadida burn rate va runway ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish tavsiya etiladi. Burn rate startapning ma'lum vaqt oralig'ida sarflayotgan mablag' miqdorini ifodalasa, runway mavjud moliyaviy resurslar startap faoliyatini necha oy davomida qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar startap jamoasiga resurslardan oqilona foydalanish hamda Lean Startup metodologiyasi asosida mahsulotni bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Oltinchidan, investitsiya qarorlarini qabul qilishda diskontlangan pul oqimlari (DCF) asosida NPV va IRR ko'rsatkichlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar startap loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda investitsiya risklarini kamaytirish imkonini beradi. NPV loyiha qiyamat yaratish darajasini ko'rsatsa, IRR loyiha rentabelligini aniqlashga yordam beradi.

Yettinchidan, startap loyihalarida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi. Grantlar, investor mablag'lari hamda kredit resurslari kombinatsiyasidan foydalanish startap faoliyatining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga investorlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish hamda risklarni muntazam monitoring qilish startap boshqaruvi samaradorligini oshiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Blank S., Dorf B. The Startup Owner's Manual: The Step-by-Step Guide for Building a Great Company. K&S Ranch Publishing, 2020.
2. Bland D., Osterwalder A. Testing Business Ideas: A Field Guide for Rapid Experimentation. Wiley, 2020.
3. CB Insights. The Top Reasons Startups Fail. Research Report, 2023.
4. Doerr J. Measure What Matters: How Google, Bono, and the Gates Foundation Rock the World with OKRs. Portfolio, 2020.
5. GEM (Global Entrepreneurship Monitor). Global Report 2023.
6. IT Park Uzbekistan. Annual Report. Tashkent, 2024.
7. ISO 31000. Risk Management – Guidelines. International Organization for Standardization, 2020.
8. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. Wiley, 2022.
9. OECD. Entrepreneurship and Innovation Outlook. Paris, 2022.
10. PMI (Project Management Institute). A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). 7th edition, 2021.
11. PMI. Pulse of the Profession Report. 2021–2024.
12. Rigby D., Sutherland J., Takeuchi H. Embracing Agile. Harvard Business Review, 2020.



13. Scrum Guide. The Definitive Guide to Scrum: The Rules of the Game. 2020.
14. Startup Genome. Global Startup Ecosystem Report. 2024.
15. StartupBlink. Global Startup Ecosystem Index Report. 2024.
16. World Bank. Entrepreneurship Database. 2023.
17. Anderson D. Kanban: Successful Evolutionary Change for Your Technology Business. Blue Hole Press, 2020.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha qarorlar to‘plami. 2022.
19. Lex.uz. PQ-357-son qaror – startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari. 2024.